

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

KASBIY TA'LIM FAKULTETI

KIMYOVIY TEXNOLOGIYALAR II –KURS 206-GURUH TOLIBI

QILICHEV ISLOMNING

“KASBIY PEDAGOGIKA ” FANIDAN
MUSTAQIL ISHI

**O'rta maxsus, kasb-hunar ta'lifi muassasalarini
boshqarish**

TEKSHIRDI:

A.Rahmatullayev

Termiz – 2014

O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI MUASSASALARINI BOSHQARISH

Reja:

- 1. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'lifi muassasalarini boshqarishning umumiyligi va ilmiy asoslari.**
- 2. O'rta maxsus kasb-hunar ta'lifi muassasalariga rahbarlik qilish.**
- 3. O'rta maxsus kasb-hunar ta'lifi muassasalari rahbarlari vazifalarining taqsimoti .**
- 4. O'rta maxsus kasb-hunar ta'lifi muassasalari rahbarlari ishini rejalashtirish.**

1. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'lifi muassasalarini boshqarishning umumiyligi va ilmiy asoslari.

Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari tashkiliy, o'quv-uslubiy va ilmiy rahbarlik qilish, davlat ta'lim standartini ishlab chiqish va joriy etish, o'quv ta'lim va kasb-hunar dasturlarini bixillashtirish, pedagog kadrlar bilan ta'minlash, ularni tayyorlash va qayta tayyorlash oliy va o'rta maxsus ta'lifi vazirligi (O'rta maxsus, kasb-hunar ta'lifi markazi), uning hududiy boshqarmalari tomonidan tarmoq vazirliklari, idoralar va korxonalar bilan birgalikda amalga oshiriladi.

Tarmoq vazirliklari, idoralar, korroratsiyalar, kontsernlar, uyushmalar va korxonalar kasb-hunar kollejlari ikki tomonlama bo'y sunishda bo'ladi. Tarmoq vazirliklari, idoralar, korroratsiyalar, kontsernlar, uyushmalar va korxonalar ularni moddiy va moliyaviy ta'minlashni, o'quvchilarni kasbga o'rgatishni va ularda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishni amalga oshiradilar, mutaxassislar bo'lgan ehtiyojni aniqlaydilar, bitiruvchilarni ishga joylashtirish masalalarini hal qiladilar.

Madaniyat ishlari vazirligi, Badiiy akademiya, Sog'liqni saqlash vazirligi kasb-hunar kollejlari ularning tasarrufida bo'ladi.

Kasb-hunar kollejini boshqarish, oshkoraliq, demokratiya va o'z-o'zini boshqarish asosida amalga oshiriladi.

Kasb-hunar kollejiga o'z-o'zini boshqarishning oliv organi bo'lib pedagogik kengash hisoblanadi va u:

- kasb-hunar kolleji rivojlanishining asosiy yo'nalishlarini,o'quvchi va mutaxassislar tayyorlash va tarbiyalash sifatini oshirish,va takomillashtirishni,qo'shimcha va moddiy mablag'larni jalb qilish va moddiy-texnika bazasini belgilaydi ;
- ta'lim mazmunining turli variantlarini muhokama qilish va tanlab olish / o'quv rejalar, dasturlari, darsliklari/ o'quv-tarbiya jarayonining shakl va uslublarini, ularni amalga oshirish usullarini, o'quvchilarни qabul qilish, o'quv yurtidan chiqarish, o'tkazishni muhokama qiladi va tanlaydi ;
- muhandis-pedagog xodimlarning ijodiy tashabbuskorligini oshirish, ularning pedagogik tajribasini ommalashtirish bo'yicha malaka oshirish ishlarini tashkil qiladi;
- o'qituvchilarga kasbiy toifa berish to'g'risidagi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan Nizom asosida, o'quvchilar va ota-onalarning fikrlarini hisobga olib, takliflar kiritilgan holda muhandis-pedagog xodimlarni attestatsiyadan o'tkazadi;
- kollejning ilmiy-pedagog birlashmalari va qabul komissiyasining hisobotini eshitadi va muhokama qiladi.
- pedagogik kengash tarkibiga kollej pedagoglari va xodimlari, otaliq tashkilotlari vakillari kiradi.

Pedagogik kengash raisi-direktordir.

Pedagogik kengash majlislari bir oyda bir martadan ortiq o'tkaziladi. Kengash qarori umumiyo ochiq ovoz berish orqali qabul qilinadi. Pedagogik kengash qarori kollej bo'yicha buyruq chiqqandan so'ng kuchga kiradi.

Kollejning faoliyatini boshqarish direktor tomonidan amalga oshiriladi.

Direktor oliv va o'rta maxsus ta'lim vazirligi va vakolatli davlat organlari tomonidan tayinlanadi va kasb-hunar kollejidagi barcha ishlarning natijasi uchun javobgardir.

Kollej direktori ta‘lim muassasasi nomidan ish yuritadi va boshqa tashkilotlar oldida vakolatga ega.

Direktor kollejning mulki, moddiy bazasi va mablag’ining taqsimotchisi hisoblanadi, shartnomalar tuzadi, ishonch varaqalarini beradi, davlat banklarida hisob ochadi va kreditlarni boshqaradi.

Kollej direktori o’z o’rinbosarlarini, o’quv tuzilmalari rahbarlarini, bosh muhosib hamda barcha rahbar xodimlarni tayinlaydi va ishdan bo’shatadi, kasaba uyushmasi bilan kelishilgan holda barcha ishchilarning lavozim majburiyatlarini belgilaydi.

Direktor ma‘muriyat faoliyati natijalari bo'yicha pedagogik kengash va yuqori tashkilotlarga hisobot beradi.

2. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalariga rahbarlik qilish.

O’RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA‘LIMI MUASSASASI DIREKTORI

Lavozim vazifalari:

- a) O’zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to’g’risida”gi qonuni va boshqa qonun hujjalarning bajarilishini ta‘minlaydi;
- b) ta‘lim muassasasi faoliyati ustidan raxbarlikni amalga oshiradi, ilmiy va pedagogik kengashni boshqaradi, ta‘lim sifatini yaxshilash, o’quv tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish, rivojlantirish va mukammallashtirishning asosiy yo’nalishlarini belgilaydi;
- v) o’quv tarbiya jarayonining barcha bosqich va bo’limlari faoliyatini tashkillashtiradi;
- g) o’quv jarayoniga Davlat ta‘lim standartlari, o’quv rejalarini va dasturlarini kiritishni ta‘minlaydi, ularni tadbiq etishning nazoratini amalga oshiradi;
- d) O’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasasi ustavi talablariga rioya qilishni ta‘minlaydi;
- e) davlat va jamoat tashkilotlarida o’rnatilgan tartibda ta‘lim muassasasi manfaatlarini himoya qiladi;
- j) ta‘lim muassasasining yillik va oylik ish rejalarini tasdiqlaydi hamda o’qituvchilar yillik ish rejalarining bajarilishini nazorat qiladi;

z) o'quvchilar tomonidan tizimli bilimlar olishni, ularga bo'lgan ehtiyojni rivojlantirishni, bazaviy o'quv, ilmiy va umummadaniy bilimlarni, ijodiy, mustaqil fikrlashni shakllantirishni, mehnat ko'nikmalarini, tanlangan kasbga va atrof muhitga ongli munosabatni yuzaga keltirishni ta'minlaydi;

i) o'quv jarayoniga mukammallahsgan va samarali pedagogik texnologiyalar va ta'lim vositalarini kiritadi;

y) o'z vakolati doirasida ta'lim muassasasining moliya xo'jalik masalalarini hal etadi, byudjet va byudjetdan tashqari moliyaviy mablag'larni shakllantiradi va ulardan samarali foydalanishini ta'minlaydi, o'quv jixozlari va boshqa o'qitish vositalarining saqlanishini ta'minlaydi, ta'lim muassasasining moddiy-texnik bazasini rivojlantirish ishlarini tashkil etadi;

k) pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarni aniqlaydi, ularni tanlash va joy-joyiga qo'yishni amalga oshiradi, shtat jadvalini belgilangan xizmat doirasida tasdiqlaydi, pedagogik xodimlar attestatsiyasini tashkillashtiradi, xodimlar bilan mehnat shartnomalari tuzadi;

l) mehnat, ishlab chiqarish, ijro intizomi va texnika xavfsizligi qoidalariga amal qilinishini ta'minlaydi;

m) ta'lim muassasasining o'rnak ko'rsatgan xodimlarini rag'batlantirish bo'yicha maxsus komissiyaga boshchilik qiladi, maxsus komissiya qarori asosida xodimlarga qo'shimchalar, bir martalik mukofotlar va moddiy yordamni tayinlaydi;

n) o'quvchilarning bilim sifatini davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini, o'quv tarbiya ishlarining samaradorligini ta'minlaydi va nazorat qiladi, pedagog xodimlarni rag'batlantirish uchun ta'lim standartlari talablari bajarilishini xolis hisobga olinishini tashkillashtiradi;

o) o'qituvchilar faoliyati samaradorligi va sifatini baholash uchun o'quvchilar o'rtasida tanlanma testlarni tashkil etadi;

r) o'quvchilarni ta'lim muassasasiga qabulini, kursdan kursga o'tishini, ish yuritishni olib borilishini, o'quvchilarga ma'lumot haqidagi hujjatlarni berilishini tashkil etadi;

r) umumta‘lim maktablari 9-sinflari bitiruvchilari bilan faol kasb-hunarga yo’naltirish ishlarini olib borishni tashkil qiladi;

e) o’quvchilarni eng yaxshi milliy an‘analar, urf-odatlarga hurmat ruhida tarbiyalashni, ularda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg’unligi asosida yuqori ma‘naviy ahloqiy sifatlarni hosil qilish, o’z vataniga va xalqiga sodiq fuqarolarni shakllantirishni boshqaradi;

yu) ta‘lim muassasasi faoliyati haqida hisobotlar tayyorlaydi, buyruqlar chiqaradi, xodimlar uchun ijtimoiy-maishiy va malaka oshirish uchun sharoitlar yaratadi;

ya) xodimlarning majburiyatları, vazifalarini belgilaydi va ulardan alohida o’rnak ko’rsatganlarini mukofotlash va rag’batlantirish uchun tavsiya etadi, o’z vakolati doirasida jazo choralarini qo’llaydi;

o’) jamoa a‘zolari va o’quvchilar kontingenti huquqlarini himoyalashga, hayoti va sog’lig’ini muhofazalashga g’amxo’rlik qiladi.

Bilishi zarur:

a) O’zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to’g’risida”gi qonuni va boshqa qonun hujjatlarini;

b) Davlat ta‘lim standartlari talablari va mazmuni, jamoani samarali boshqarish usullari, xodimlarni, ularni o’qitish va tarbiyalash sifati, standart talablarini qo’llash natijalariga bog’langan holda moddiy va ma‘naviy rag’batlantirish tizimi va usullarini;

v) kadrlarni tanlash va joy joyiga qo’yish usullari, ularni malakasini oshirish va qayta tayyorlash tartibini;

g) pedagogikani, pedagogik psixologiyani, o’smirlar fiziologiyasini, ta‘lim muassasasi faoliyatini tashkil etishning sanitar gigienik talablarini, texnika va yong’in xavfsizligi qoidalarini;

d) ilg’or pedagogik texnologiyalar va ularni tatbiq qilish usullarini;

e) o’quvchilar bilimini nazorat qilish usullarini;

j) ta‘lim muassasasi va pedagoglarni attestatsiyadan o’tkazish tartibi va mezonlarini;

z) yoshlarga oid qonun hujjatlarni.

Bajara olishi zarur:

a) ta‘lim muassasasi va alohida olingan o’qituvchilar faoliyatini tahlil qilish, eng ahamiyatli muammolarni aniqlash va ularni hal etishning samarali yo’llarini belgilash;

b) ta‘lim muassasasini rivojlantirish dasturini ishlab chiqish, ta‘lim muassasasini boshqarishni tashkiliy tuzilmalarini hosil qilish va shartnomalar tuzish, nizomlar, qoidalar, lavozim yo’riqnomalarini ishlab chiqish, ishchi yig’ilishlar, suhbatlarni olib borish;

v) hudud iqtisodiyotining kichik mutaxassis kadrlarga bo’lgan kelajakdagagi ehtiyojlarini aniqlash va tahlil qilish;

g) pedagogik jamoada sog’lom psixologik muhitni yaratish.

Malaka talablari:

a) akademik litsey, kasb-hunar kollejining ta‘lim yo’nalishlaridan kamida bittasi bo’yicha yoki bilim sohasi bo’yicha, shuningdek ta‘lim muassasasi joylashgan hududning kadrlar rotentsialini hisobga olgan holda, istisno tariqasida umumta‘lim fanlari bo’yicha oliy ma‘lumot (madaniyat, srort hamda tibbiyot sohasi bundan mustasno);

b) ta‘lim tizimidagi (pedagogik, o’quv-tarbiyaviy, o’quv-uslubiy faoliyati) ish staji 3 yildan kam emas, shu jumladan ta‘lim tizimida kamida 1 yil boshqaruv lavozimlarida ish staji.

Ta‘lim muassasasi yo’nalishi bo’yicha ilmiy daraja yoki ilmiy unvonga ega bo’lganda rahbar lavozimlardagi shaxslarga ish staji talab qilinmaydi.

3. O’rta maxsus kasb-hunar ta‘limi muassasalari rahbarlari vazifalarining taqsimoti

- O’rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasasi direktori
- O’rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasasining o’quv-ishlari bo’yicha direktor o’rinbosari
- O’rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasasi direktorining ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo’yicha o’rinbosari

- O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasasining ishlab chiqarish ta'limi bo'yicha direktor o'rribosari
 - O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasasi direktorining ma'muriy-xo'jalik ishlari bo'yicha o'rribosari
 - Chaqiruvgacha tayyorgarlik rahbari
 - Jismoniy tarbiya rahbari
 - Kasb-hunar kollejining katta ustasi
 - Kasb-hunar kollejining o'quv ishlab-chiqarish ustaxonasi mudiri
 - Bosh o'qituvchi
 - Yetakchi o'qituvchi
 - Katta o'qituvchi
 - Oliy ma'lumotli o'qituvchi
 - O'rta-maxsus ma'lumotli o'qituvchi
 - Psixolog
 - Tarbiyachi
 - Kasb-hunar kollejining ishlab chiqarish ta'limi ustasi
 - Uslubchi
 - To'garak rahbari

Kollejning o'qituvchi va o'quv-tarbiya xodimlari tarkibi.

Kasb-hunar kollejida pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga tegishli ma'lumotga, kasb-kor tayyorgarligiga hamda yuksak ahloqiy fazilatlarga ega bo'lgan shaxslar egadirlar. Sud hukmi bilan pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish taqiqlangan shaxslar bu ishga qo'yilmaydi.

Kasb-hunar kollejiga professor-o'qituvchilarni va muhandis-pedagoglarni ishga qabul qilish ta'limni boshqarish davlat vakolatli organi belgilagan tartibda attestatsiyadan o'tkazib turiladi.

Kollejda o'qituvchilar, o'quv ishlab chiqarish ustalari, ma'muriy va yordamchi xodimlar lavozimlari nazarda tutiladi.

Kollejning o'qituvchi,o'quv ishlab chiqarish ta'limi ustalari va xodimlari huquq va burchlari kasbga qo'yilgan talablar bilan belgilanadi va O'zbekiston Respublikasi mehnat qonunchiligi asosida tartibga solinadi.

O'qituvchilar va ishlab chiqarish ustalari pedagogik mehnatning, tarbiyaviy va ilmiy jarayonning yuqori samara berishiga,o'quvchilarda mustaqillik ,tashabbuskorlik, ijodiy qobiliyat, zaruriy kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishga,kollej Ustaviga rioya qilishga majbur.

Kollejning ma'muriy, yordamchi, xo'jalik xodimlarining huquq va burchlari uning Ustavi, ichki tartib-qoidalari direktor tomonidan tasdiqlangan lavozim yo'riqnomalari bilan belgilanadi.

O'qituvchilar, ishlab chiqarish ta'lim ustalari, kollejning rahbar xodimlarining pedagogik faoliyat darajasini baholash maqsadida harakatdagi shahodat ko'rige xaqidagi Nizomga asosan davriy shahodat ko'rige o'tkazib boriladi.

Kollejning pedagogik kadrlari harakatdagi Nizom asosida malaka oshirish va qayta tayyorlash muassasalarida o'z malakalarini oshiradilar.

Kollej barcha toifadagi o'quvchilar , o'qituvchilar va xodimlarning o'qishi, mehnat qiliishi va dam olishi uchun zarur sharoitlarni yaratib beradi.

Barcha toifadagi xodimlarning mehnatiga haq to'lash byudjet doirasida mehnat faoliyati haqidagi harakatdagi nizomga asosan amalga oshiriladi.Moddiy rag'batlantirish miqdori kollej direktori tomonidan belgilanadi.

Kollej oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilarini tashkilot, muassasa,korxona mutaxassislarini shartnoma asosida ishga jalb qilishi mumkin.

4. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalari rahbarlari ishini rejalashtirish.

**O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI MUASSASASINING O'QUV ISHLARI
BO'YICHA DIREKTOR O'RINBOSARI**

Lavozim majburiyatları:

a) o'quv jarayonini tashkil qiladi, ta'lim standartlarida belgilangan o'quv, tarbiyaviy reja va dasturlarning bajarilishini ta'minlaydi;

b) pedagogik kadrlarni tanlash va joylashtirishda qatnashadi, pedagogik jamoaning o'quv-uslubiy ishlarini boshqaradi, o'qituvchilar va ishlab chiqarish ustalarining ilg'or tajribasini o'rganish va umumlashtirishni tashkil qiladi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tatbiq etadi. Pedagog xodimlarga metodik yordamni tashkil qiladi va amalga oshiradi, jamoa va alohida o'qituvchilarning pedagogik faoliyatini tahlil qiladi;

v) o'qituvchilarning yillik, chorak va oylik ish rejalarini ishlab chiqadi, tasdiqlaydi va bajarilishini nazorat qiladi. O'qituvchilarning tasdiqlangan ish rejalarasi asosida ish vaqtini hisoblaydi va bajarilishini nazorat qiladi. Dars jadvali, testlar, imtihonlar va boshqa o'quv taqdimotlari grafigini ishlab chiqadi;

e) fanlar bo'yicha uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish va yosh mutaxassislarga uslubiy yordam tashkil etish, o'qituvchilarning kasbiy mahoratlari va malakalarini oshirish bo'yicha ishlarni olib boradi, o'quvchilarning o'quv yuklamalarini takomillashtiradi;

yo) guruh jurnallarining yuritilishi va saqlanishini ta'minlaydi, guruh raxbarlari faoliyatini boshqaradi o'quv ishlarining holati va natijalari bo'yicha hisobotlar tayyorlaydi, ota-onalar bilan hamkorlik ishlarini tashkil qiladi;

j) pedagog xodimlar mehnatni muhofazalash talablari, sanitар-gigienik rejim va texnika xavfsizligiga amal qilinishini ta'minlaydi;

z) jamoa a'zolari va o'quvchilar huquqlarini himoyalash, hayoti va sog'lig'ini muhofazalashga g'amxo'rlik qiladi;

i) direktor yo'qligida uning lavozim majburiyatlarini amalga oshiradi;

l) doimiy ravishda o'z malakasini oshirib boradi.

O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI MUASSASASI DIREKTORINING MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLAR BO'YICHA O'RINBOSARI

Lavozim vazifalari:

a) ta'lif muassasida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil qiladi. Ta'lif muassasida tarbiyaviy ishlar bo'yicha yillik, oylik ish rejalarini ishlab chiqadi, guruh rahbarlarining tarbiyaviy ishlar bo'yicha ish rejalarining bajarilishini nazorat qiladi;

b) milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslariga kiruvchi fanlar bo'yicha ta'lim standartlari talablarining bajarilishini nazorat qiladi, bu fanlarning o'zlashtirilishi monitoringini olib boradi;

v) o'quvchilarning tartib-intizomi va davomati, tarbiyaviy ishlar samaradorligining nazoratini amalga oshiradi;

g) ta'lim muassasining yotoqxonalarida o'quvchilarni yashashiga muqobil sharoitlar yaratadi, ularni o'rnatilgan tartib-qoidalarga amal qilinishini tashkil etadi;

d) sport sektsiyalari va qiziqishi bo'yicha to'garaklarning doimiy faoliyatini ta'minlaydi;

e) milliy urf-odatlar, tarixiy qadriyatlar va buyuk ajdodlarimiz misolida o'quvchilarning vatanrarvarlik tarbiyaviy ishlarini tashkillashtiradi va nazorat qiladi. O'quvchilar o'rtasida darsdan tashqari, ommaviy-ma'rifiy ishlar va ekskursiyalarni tashkil etadi va uni muvofiqlashtiradi;

j) ta'lim muassasida o'quvchilarning ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasi masalalarini yechishga yo'naltirilgan targ'ibot va tashviqot ko'rgazmali vositalar bilan jihozlashni tashkil etadi.

z) guruh rahbarlari uslubiy birlashmasining faoliyatini tashkil etadi, ilg'or pedagogik tajribalar almashish jarayonini muvofiqlashtiradi, tarbiyaviy ishlar sifati va natijalarini tahlil qiladi;

i) pedagogik kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yishda qatnashadi, yuqori malakali ustozlarning ilg'or pedagogik tajribalarini o'rganadi, umumlashtiradi va tarqatadi;

k) umumta'lim maktablarining 9-sinf o'quvchilarini faol kasbga yo'naltirish ishlarini tashkil etishda qatnashadi;

l) tarbiyaviy ishlar bo'yicha uslubiy qo'llanmalarni ishlab chiqish va yosh mutaxassislarga uslubiy yordamni tashkil etish, o'qituvchilarning kasbiy mahoratini va malakasini oshirish ishlarini olib boradi;

m) san'atkorlar, jamoat arboblari, urush va mexnat faxriylari bilan uchrashuvlar va ijodiy kechalar o'tkazilishini tashkil qiladi;

r) jamoa a‘zolari va o’quvchilar kontingenti huquqlarini himoyalash, hayoti va sog’lig’ini muhofazalashga g’amxo’rlik qiladi.

s) doimiy ravishda o’z malakasini oshirib boradi.

Malaka talablar:

- a) ijtimoiy fanlar bo'yicha yoki pedagogik oliy ma'lumot;
- b) ta'lim tizimidagi (pedagogik, o'quv-tarbiyaviy, o'quv-uslubiy, boshqaruv faoliyati) ish staji 3 yildan kam emas;

O'rta maxsus, kasb-hunarta'limi muassasasining ishlab chiqarish ta'limi bo'yicha direktor o'rribosari

Lavozim vazifalari:

- a) ishlab chiqarish ta'limi o'quv jarayonini tashkil etadi, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi standartlarida ko'zda tutilgan o'quv, tarbiyaviy rejalar va dasturlarning bajarilishini ta'minlaydi;
- b) o'qituvchilar va ishlab chiqarish ta'limi ustalarini tanlash va joy-joyiga qo'yishda ishtirok etadi;
- v) ishlab chiqarish ta'limi jarayonini boshqaradi, ustozlarning, ishlab chiqarish ta'limi ustalarining ilg'or tajribalarini o'rganish va umumlashtirishni tashkil qiladi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tatbiq etadi;
- g) pedagogik xodimlar va ishlab chiqarish ta'limi ustalariga uslubiy yordam tashkil qiladi, jamoa, ayrim o'qituvchilar va ishlab chiqarish ta'limi ustalarining pedagogik faoliyatini tahlil qiladi;
- d) o'qituvchilar va ishlab chiqarish ta'limi ustalarining yillik, chorak va oylik ish rejalarini ishlab chiqadi, tasdiqlaydi va bajarilishini nazorat qiladi. Tasdiqlangan reja asosida o'qituvchilarning ish vaqtini hisobini yuritadi, dars jadvali, testlar sinovlari, imtihonlar grafigini ishlab chiqadi;
- e) o'quv jarayoni nazoratini tashkil qiladi, ta'lim standartlarining bajarilishi, o'quvchilarning xulqi va o'zlashtirishi monitoringini amalga oshiradi, fakultativ darslar va fan to'garaklarini tashkil etadi;

j) o'quv xonalarini ko'rgazmali va texnik o'quv qurollari bilan, hamda axborot -resurs markazini kitoblar, jurnallar va boshqa axborot materiallari bilan ta'minlanishi va rasmiylashtirilishini boshqaradi;

z) o'quvchilarning ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etadi va nazorat qiladi;

i) korxonalar, tashkilotlar va muassasalar bilan bitiruvchilarni ishga joylashtirish va talabnomalar rortfeline shakllantirish masalalarida hamkorlik qiladi;

k) ta'lim muassasasi bitiruvchilarini ishga taqsimlash va ishga joylashtirishda ishtirok etadi;

Malaka talablar:

a) kasb-hunar kollejining bilim sohasiga oid maxsus fanlardan biri bo'yicha oliy ma'lumot;

b) pedagogik ish staji 3 yildan kam emas;

**O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI MUASSASASI DIREKTORINING
MAMURIY-XO'JALIK ISHLARI BO'YICHA O'RINBOSARI**

Lavozim vazifalari:

a) umumta'lim va maxsus fan o'quv xonalari, ishlab chiqarish ta'limi ustaxonalari, laboratoriya va texnologik jihozlarni yo'naliш bo'yicha ishlatiladigan texnologik loyiha me'yorlariga muvofiq joylashtirishni tashkil etadi;

b) umumta'lim va maxsus fan o'quv xonalari, ishlab chiqarish ustaxonalari va laboratoriyalarni texnika xavfsizligi qoidalariga javob beradigan zamonaviy jihozlar, moslamalar bilan ta'minlanishini nazorat qiladi;

v) o'qituvchilar, pedagog-muhandislar bilan texnika vositalari va boshqa jihozlardan to'g'ri foydalanish va ularni saqlash ishlari bo'yicha tushuntirish olib boradi;

g) o'quv ustaxonalaridagi mavjud texnika vositalari va jihozlardan to'g'ri foydalanish qoidalariga rioya etilishi, mehnat, elektr va yong'in xavfsizligi, sanitariya-gigiena talablari, ishslash vaqtini me'yorlariga rioya etishni tashkil etadi va amalda bajarilishini nazorat qiladi;

d) texnik vositalar va jihozlarni texnik jihatdan soz yoki nosozligini nazorat qiladi hamda texnik ko'rik sinovi va ta'mirlash ishlarini ta'lim muassasasining ichki imkoniyatlaridan kelib chiqqan xolda, pedagog-muhandislar bilan bиргаликда, zarur hollarda shartnoma asosida boshqa tashkilotlar yordamida amalga oshiradi;

e) o'quv ishlab chiqarish ustaxonalari, o'quv-mashq roligonlari, o'quv xo'jaliklarida mavjud texnik vositalar, jihoz va dastgohlardan to'g'ri va maqsadli foydalanishni ta'minlaydi. Texnik vosita, jihoz va asbob-uskunalarining hisobini olib boradi va texnik xizmat ko'rsatish ishlarini amalga oshiradi. Qo'riqlash va yong'indan xabar beruvchi qurilma (signalizatsiya)larni o'rnatish ishlarini tashkil etadi;

ADABIYOTLAR

RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.:O'zbekiston,1992
2. O'zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»T., «SHarq»., 1997 y
3. O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. T.,1997 y
4. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining roydevori. T., 1998y
5. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T., 1998 y
6. Xodjaboev A.R., Xusanov I.A. Kasb ta'limi metodologiyasi. O'quv qo'llanma. – T.: 2006.- 180b.
7. Olimov. Q.T. Kasb ta'limi uslubiyati. O'quv qo'llanma. -T.: 2006y
8. Muslimov N.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish.Monografiya.- Toshkent:Fan.2004.-127 b.
9. Xodjaboev A.R., Ikromov A.I. Akademik lisey va kasb-hunar kollejlari rahbarlarining bozor iqtisodiyoti sharoitida rahbarlik mahoratini shakllantirish. – T..2004,174 b.t
10. Sharirov Sh.S. va bosh. Kasbiy pedagogika (metodik qo'llanma).T.: TDRU,2006.56b.
11. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limidagi tayyorlov yo'nalishlari, kasblar, ixtisosliklar. Tasniflagichi. – Toshkent, 2004.4 8 b.
12. Усманова М.И. Педагогические тестирование. Т.:Адолат,1995.
13. O'zbek pedagogikasi antologiyasi.1-2 Т. (tuzuvchilar K.Hoshimov, S.Ochil. O'qituvchi,1995-2000)
14. Hayrullaev M.M. Farobi. T.: "O'zbekiston", 1991
15. Hasanboev J.Y. Usmanboeva M. Pedagogika. Ma'ruzalar matni –T.: 2001
16. Hasanboev J.X. va boshqalar. Milliy pedagogikamiz tarixiy ildizlari va barkamol avlod tarbiyasi. Uslubiy qo'llanma. Jizzax Davlat pedagogika instituti 2007
17. Xomidov H. "Avesto" fayzlari. T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2001
18. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig (so'zboshi muallifi B.Tuxliev). – T.: Yulduzcha, 1990
19. Pedagogika tarixi. 1-jild. (Tuzuvchilar: K.Hoshimov, Sh.Avazov, M.Hoshimova) T.: 2001
20. Pedagogika tarixi. 2-jild. (Tuzuvchilar: K.Hoshimov, Sh.Avazov, M.Hoshimova) T.: 2001
21. Homidov H. "Avesto" fayzlari. T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2001
22. Джуринский А.Н.История педагогика. М; Владос, 1999
23. История педагогика. Тексты лекций. Сост. Мадьярова С.А. Джо'рабаева Д.Д. Т., ТГПУ, 2001.
24. Pedagogika tarixi 1-qism (Tuzuvchilar: S Nishonova, B.Hasanova) T., 2002 yil
25. Pedagogika tarixi 2-qism (Tuzuvchilar: S Nishonova, B.Hasanova) T., 2002 yil